

Salimov Nosirjon Inomjon o'g'li

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institute

Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

Inson va tabiat masalasi chuqur anglab yetilgan, his qilingan holda, namunali tarzda yo'lga qo'yilishi turli ekologik halokatlarning yuzaga kelishini bartaraf qilishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Buning uchun birinchi navbatda fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiat oldidagi mas'uliyat hissini tarbiyalash, bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish, qisqasi ekologik ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor qaratish muhim sanaladi.

Ekologik ta'limning muhimligi hozirgi zamonaviy dunyoda hech kimda shubha uyg'otmasligi bilan birga ko'plab mamlakatlarda ta'lim va tarbiya berishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat – butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovi aslida. Ekologik ta'lim aholida ekologik madaniyatni va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantiradigan eng muhim omildir.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasida «...barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi» qayd etib o'tilgan.

Ekologik ta'limning bosh maqsadi aholining barcha qatlamlarida, jumladan, maktab-gacha va maktab ta'limida, shuningdek, kollej, texnikum va litsey o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalari va oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlarida atrof-muhitni asrash muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda yoshlarda ekologik madaniyatni tarbiyalash ta'lim faoliyatining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bolalarda ekologik bilimlar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bunday ta'lim shunchalik katta samara beradi. Shuning uchun ushbu jarayonni ilmiy tashkil qilish davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi zarur.

Aholi, ayniqsa, o'quvchi va talaba yoshlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirmasdan, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasiga sarflanayotgan har qancha mablag'lar bilan muammolarni bartaraf etib bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda umumta'lim muassasalarining amaldagi o'quv dasturlariga muvofiq tabiiy fanlar, biologiya, geografiya, kimyo va fizika fanlari darsliklariga yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish hamda rivojlantirishga oid tushunchalar singdirilgan degan fikrlar bildirilayotgan bo'lsa-da, ammo ekologik bilimlarni shakllantirish va yuksaltirishda bir qancha muammolar mavjud.

Ochig'ini aytganda, ta'lim muassasalarida «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o'quvining majburiyligiga oid talablar yetarli darajada bajarilmayapti. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalda

bo'lgan ta'lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan, respublikamizda so'nggi vaqtlarda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan. Ekologik ta'lim sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik jihatdan ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga oid o'quv qo'llanmalar, o'quvchi va talabalar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

Shularni e'tiborga olgan holda, O'zbekiston Ekologik partiyasi maktabgacha va maktab ta'limi o'quv dasturlarida ekologiya fanini alohida fan sifatida kiritish, shuningdek, tegishli oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichida ekologiya huquqi, ekologik jurnalistika, tashqi ekologik faoliyat ixtisosliklarini tashkil etish taklifini bildirmoqda.

Bu yo'nalishni umuminsoniy manfaatlar negizida uyg'un taraqqiy ettirish, pirovard natija – odamlarda faol ekologik madaniyat shakllanishida va ularning tabiatni muhofaza qilish faoliyatida katta rol o'ynaydi.

Jahon mamlakatlari tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, Germaniyada ekologik ta'lim turli loyihalar, eko haftaliklar, shuningdek, guruh ekskursiyalari kabi ta'lim-tarbiya usullaridan foydalanib tashkil etiladi. Bu mamlakatda yagona davlat dasturi (ta'lim kontseptsiyasi) mavjud emas. Ammo maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ko'p vaqtlarini ochiq havoda o'tkazadi va tabiat bilan muloqot qiladi.

Yaponiyada esa atrof-muhitga e'tibor va hurmat bilan munosabatda bo'lish bolalar, maktab o'quvchilari, talabalar, tadbirkorlar, uy bekalari, kompaniya prezidentlari, shahar hokimlari va gubernatorlari – bir so'z bilan aytganda, hamma-hammaga o'rgatiladi. Bu mamlakatda ekologik tarbiya maktabgacha yoshdan, bola o'zini va uni o'rab turgan dunyoni anglay boshlagan paytdan boshlanadi.

Ekologik vaziyati nihoyatda ayanchli tus olib borayotgan Hindiston esa allaqachon jiddiy choralar ko'rishga kirishgan. Misol uchun, 2020 yilda Hindiston Milliy ta'lim siyosatini qabul qildi va nihoyat maktablarda ekologik ta'limga bo'lgan dolzarb ehtiyojni hal qildi. Maktablar orqali hukumat talabalarning atrof-muhitga oid xabardorligini oshiradigan va amaliy harakatlarni rag'batlantiradigan keng qamrovli ta'lim olishlarini ta'minlash bo'yicha tashabbuslarni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda.

Tabiat va jamiyat munosabatlarini ilmiy tushunish asosida ta'lim-tarbiya tizimida tegishli vosita va usullarni zamon talablari darajasida takomillashtirib, amaliyotda qo'llash, ekologik madaniyatni rivojlantirishning zaruriy shartidir. Buning uchun ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalish, usul va vositalarini uyg'un rivojlantirish hamon dolzarbligicha qolmoqda.

